

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILAR JASORATINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Zohirov Nodirbek Ulug'bekovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi,
leytenant*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning jasorat tuyg'usi, uning tarixdagi o'rganilish darajasi, ilmiy jihatdan asoslanishi hamda nazariy tahlili muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Harbiy xizmatchilar, jasorat, tuyg'u, qahramonlik, mardlik, vatan himoyasi, siyosiy, strategik, manfaat va boshqalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается чувство мужестве военнослужащих, уровень ее исторической изученности, научное обоснование и теоретический анализ.*

Ключевые слово: *Военнослужащие, мужество, чувство, героизм, храбрость, защита Родины, политический, стратегический, выгода и других.*

Annotation. *The article examines the sense of courage of military personnel, the level of its historical knowledge, scientific justification and theoretical analysis.*

Key words: *Militaries, courage, feeling, heroism, bravery, defense of motherland, political, strategic, interest etc.*

Dunyodagi hozirgi geosiyosiy vaziyat va eng yirik jahon kuchlari o'rtasidagi keskinlikning doimiy ravishda kuchayishi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilaridan ham jangovar tayyorgarlikning, ham ma'naviy ham psixologik fazilatlarini shakllantirishning sifat jihatidan yangi darajasini talab qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi davlati va armiyasi tarixini tahlil qilish ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, askarlarning qat'iyatliligi va jasorati har doim jangovar topshiriqlarni bajarishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Bundan tashqari, hozirgi kunda xorij mamlakatlarida turli xil vaziyatga tushgan insonga nisbatan befarqlik o'z navbatida bizning jamiyatimizni ham qamrab olmoqda. Shu nuqtai nazardan davlatlar o'rtasidagi murosasizliklarda, shuningdek, yuzaga keladigan ekstremal(favqulodda) vaziyatlarda ko'ksini qalqon qilib turadigan, el-yurt tinchligi, xalqining osoyishtaligini saqlashga bel bog'lagan harbiy xizmatchilarni tarbiyalash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Har bir davlatning o'ziga xos etnik jihatdan kelib chiqishi bo'lganidek, qadimgi o'zbek elining ham buyuk hamda ulug'langan tarixi mavjud. Bunday shonli tarixga o'chmas, bitmas-tuganmas iz qoldirgan ajdodlarning yodi barhayotdir. Jumladan, o'z zamonasining dono hamda mohir sarkardalaridan bo'lmish, ayniqsa, o'zbek ayoli timsolini yuksaklarga ko'targan To'maris, ikkala qo'lida ham shamshirni bemalol o'ynata olgan, o'zining diniy hamda dunyoviy bilimlari bilan o'zgalarni lol qoldirgan, Yevropa xaloskori bo'lmish Amir Temur,

mo'g'ullar sultonini o'zining mardonavor xatti-harakatlari bilan rom etib, beqiyos jasoratni namoyon qilgan Jaloliddin Manguberdi ham diyorumiz pahlavonlaridandir . Ulardan tashqari Shiroq, Spitamen, Muqanna, Zahiriddin Muhammad Bobur, Temur Malik ham o'z zamonasining buyuk jasorat ko'rsatgan davlat arboblardan bo'lishgan.

Birgina, Jaloliddin Manguberding mustaqillik yillarida nomining tiklanishi hamda tavalludining 800-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda birinchi prezidentimizning so'zlagan nutqlari, nafaqat marosim ishtirokchilarini, balki, hozirgi kundagi vaziyatlarni ham yaqqol baholab bergan. "Jaloliddin Manguberding hayot yo'lini tahlil qiladigan, o'sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko'zi bilan qarab baho beradigan bo'lsak, ular bizni mana shunday tabiiy

va ibratli saboq-xulosalar chiqarishga undaydi.

Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko'rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo'ravonlik bilan o'z hukmronligini o'rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo'ladi. Bu – hayot. Bu hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni nafaqat o'z tariximiz va hayotimizda balki, boshqa xalqlar tarixi va hayotimisolida ham ko'rish mumkin.

Ikkinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat el-yurt bor ekan, o'zining tug'ilib o'sgan, ota- bobolarining xoki yotgan, ertaga farzandlarning kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash zarur bo'lsa, bu yo'lda jon fido etishga tayyor turish kerak.

Uchinchi achchiq xulosa shuki, har qaysi el, har qaysi yurt chetdan keladigan yovuz ofatdan ko'ra, o'z ichidan chiqadigan sotqin, iymonsiz, o'zining manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, kerak bo'lsa, eng yaqin kishilarini ham sotadigan o'zini o'stirgan, voyaga yetkazgan Vataniga qo'l ko'taradigan qabih kimsalardan nihoyatda ehtiyot bo'lishi kerak. Bunday kuchlar, razil shaxslarning kibr-u havosi, manfur maqsadlari el-yurt tinchligi va taraqqiyotiga qanday xavf-xatar ekanini bugungi hayotimizda ko'rib turibmiz. Takroran aytaman, bu nafaqat kechagi tariximiz, balki, bugungi hayotimiz bilan hamohang achchiq saboqdir.

Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir da'vati shuki, u barchamizni ona yurtimizning beg'ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga va o'sib kelayotgan, ertaga bizning o'rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan farzandlarimizning kelajagini baxt-saodatini himoyalashga, yorug' istiqbolga intilib yashashga chorlaydi.

Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u g'ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqbolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirlikimizning tasdig'i va timsolidir.⁴

Jasorat va antagonist qo'rquqlik bir-biri bilan chambarchas birga yashaydi. Ularni ajratib turadigan narsa xavf qo'rquvi va unga bo'lgan munosabat o'rtasidagi bo'shliqda joylashgan ularning qat'iyatidir. Jasorat ham, qo'rquqlik ham qo'rquqinchi bo'lishi mumkin, bu xavfli

⁴ O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqidan. 1995-yil 5-noyabr

noaniqlik oldida birinchi bo‘lib. Jasorat o‘zini bajarishi kerak bo‘lgan narsani qilishga majbur qiladi va shuning uchun jasorat deb ataladi. Odamlarning jasorati namunalari hozirgi zamonda ham uchrab turadi, shuning uchun hayotida tanqidiy vaziyatlarga duch kelgan, ammo taslim bo‘lmagan, qo‘rquvga berilmagan insonlarning nomlari ma‘lum. Shunday qilib, jasorat boshqalarning hayotini saqlab qolgan (Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari, qutqaruvchilar, feldsherlar, harbiy xizmatchilar) yoki o‘zini himoya qilish instinkti bilan bogliq kundalik tabiiy biologik qo‘rquvni yengishga majbur bo‘lgan odamlarga xosdir (uchuvchilar, kosmonavtlar,) va boshqalar.

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmat davomidami yoki boshqa faoliyatlar doirasida bo‘ladimi jasoratning yuzaga kelishida vatanparvarlik tuyg‘usining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanmagan shaxslar jasorat ko‘rsata olmaydilar. Favqulodda vaziyatlarda ular avtomatik tarzda jasorat ko‘rsatishga juda ham moyil bo‘ladilar. Ekstremal vaziyat (lot. extremus) – to‘satdan paydo bo‘lgan, xavf soluvchi yoki inson tomonidan hayotiga, sog‘lig‘iga, shaxsiy butunligiga, baxtiga tajovuz sifatida subyektiv idrok qilinuvchi vaziyatdir.

Xalqda shunday hikmat bor: hayot 10 % ga biz bilan yuz berayotgan hodisalardan va 90 % - biz bu hodisalar haqida qanday fikrda ekanligimizdan iborat. Ekstremal vaziyat deyilganda oddiy (odatiy) inson tajribasidan chetga chiquvchi vaziyat tushuniladi. Boshqacha aytganda, vaziyatning ekstremalligini inson hali moslashmagan va u sharoitida harakatlanishga tayyor bo‘lmagan omillar belgilaydi. Vaziyatning ekstremallik darajasi bu omillarining kuchi, davomiyligi, yangiligi bilan belgilanadi.

Lekin, ekstremal vaziyatni inson va uni yaqinlarining hayoti uchun real, obyektiv mavjud xavf emas, balki ro‘y berayotgan hodisaga insonning munosabati ham yaratadi. Har bir hodisa muayyan inson tomonidan individual idrok qilinadi va shuning uchun ham “ekstremallik” shaxsning ichida bo‘ladi.

Ekstremallikni belgilovchi omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- Vaziyatning mas‘uliyatliliigi, xavfliligi, murakkabligi, yangiligi bilan bog‘liq turli emotsional ta’sirlar.
- Ma‘lumotlarning yetarli emasligi yoki qarama qarshi ma‘lumotlarning haddan ziyod ko‘pligi.
- Haddan ortiq psixik, jismoniy emotsional zo‘riqish.
- Noqulay iqlim sharoiti, jazirama, sovuq, kislorod yetishmasligi va h.k. ta’siri.
- Chanqoqlik va ochlikning mavjudligi.

So‘ngso‘z o‘rnida shuni ta’kidlasak maqsadga muvofiq bo‘lardiki, biz jasorat hamda matonat namunalarini ko‘rsatgan, Vatan himoyasida fidoyilik ko‘rsatgan ota-bobolarimiz qahramonliklarini hech qachon unutmaymiz. Ular bilan umrbod faxrlanamiz. Ajdodlar oldidagi farzandlik burchimiz deb, – umrbod xalqimiz jasoratini unutmaslik, xotirasini abadiy yodda saqlash, tarixdan kerakli xulosalar chiqarish, yoshlarimizni shunday zaminda yashashdan faxr-iftixor tuyish ruhida tarbiyalashni bilamiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” Toshkent: O‘zbekiston, 2022 y. 4-27 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk –G‘alabani 75 yilligi kuniga bag‘ishlangan nutqi “Mangu jasorat” nomli adabiyot Toshkent 2020 yil. 1-13b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.06.2023 yildagi 267-son
4. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/18322-islomda-vatan-va-uni-imoyasi>